

«Asia Alliance Bank» ATBda moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan iste’molchilarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko‘rib chiqish

TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib «Asia Alliance Bank» ATBda moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan iste'molchilarning amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

2. Tartib quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan Bank xizmatlari iste'molchilari bilan munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida Nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 22-aprelda 3618-son bilan ro'yxatga olingan Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi Nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom;
- O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, bankning Kredit siyosati va boshqa ichki qoidalari.

3. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Amaliyot boshqarmasi/MBXO kredit qo'mitalari – belgilangan vakolatlar doirasida korporativ va chakana kreditlash masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish vazifalari yuklatilgan bankning har bir tarkibiy bo'linmalarida doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organlar;

bank – «Asia Alliance Bank» ATB;

iste'molchilar – bank xizmatidan foydalanish istagida bankka murojaat qilgan, ushbu xizmatdan foydalanayotgan yoki oldin foydalangan, Bank bilan tuzilgan kredit shartnomasiga asosan yoki ommaviy oferta shartlarini tasdiqlash orqali bankning kredit mahsulotidan foydalangan jismoniy yoki yuridik shaxslar;

kredit muddatini uzaytirish – kredit shartnomasida belgilangan kreditni so'ndirishning yakuniy muddatini uzaytirish;

kredit restrukturizatsiyasi – kreditni so'ndirishning yakuniy muddati o'zgartirilmagan holda so'ndirish jadvalini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, kredit shartnomasi shartlaridan hech bo'lmaganda bittasining o'zgartirilishi;

MBXO – bankning Mintaqaviy bank xizmatlari markazi;

murojaat – iste'molchi (yoki uning vakili) tomonidan og'zaki, yozma yoki elektron shaklda bankka yuborilgan bank xizmatlarini ko'rsatishga taalluqli ariza, shikoyat yoki taklif;

shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar – shartnoma va (yoki) unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o'zgartirilgan aktivlar;

to'lov sanasi – kredit shartnomasi/ommalaviy ofertaga ilova sifatida tasdiqlangan kreditning qaytarish jadvaliga asosan iste'molchi tomonidan kredit to'lovlarini amalga oshirishi shart bo'lgan sana;

qarz yuki ko'rsatkichi – iste'molchining kredit (mikroqarzlari) bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlari miqdorining uning o'rtacha oylik daromadlari miqdoriga bo'lgan nisbati;

o'rtacha oylik daromadlar miqdori – qarz oluvchining mehnatga haq to'lash tarzidagi, shuningdek pensiya va boshqa daromadlarining o'rtacha oylik miqdori.

II. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning (restrukturizatsiya) tartibi

4. Iste'molchi moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolganligi hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiyinalayotganda amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) maqsadida kredit rasmiylashtirilgan bank tarkibiy bo'linmasiga murojaat qiladi.

Murojaatni qabul qilgan bank tarkibiy bo'linmasi kreditning asosiy qismi va (yoki) foizlarining to'lash muddatini kechiktirilishi yoki uzaytirilishi borasida iste'molchining arizasi va moliyaviy holatidan kelib chiqib, kredit va unga hisoblangan foizlarni to'lash muddatini 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga kechiktirilishi bo'yicha tegishli qaror qabul qilishi mumkin.

Ushbu amaliyot ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin:

a) uzaytirilgan muddatga qarab kredit bo'yicha shartnomaning oxirgi muddati ham mutanosib ravishda uzaytiriladi.

Bunda uzaytirilgan muddat davomida hisoblangan foizlar balansning 16379 (Shartnomaga ko'ra hisoblab yozilgan, biroq to'lov muddati uzaytirilgan foizlar) hisob-raqamiga o'tkaziladi va kredit bo'yicha shartnomaning uzaytirilgan muddatiga oyma-oy teng miqdorlarda taqsimlanadi;

b) kredit bo'yicha shartnomaning oxirgi muddatini o'zgartirmasdan kredit va foiz to'lovlari kechiktiriladi.

Bunda kredit va foiz to'lovlari kechiktirilganda hisoblangan foizlar balansning 16379 (Shartnomaga ko'ra hisoblab yozilgan, biroq to'lov muddati uzaytirilgan foizlar) hisob-raqamiga o'tkaziladi va kreditning qolgan muddatiga oyma-oy teng miqdorlarda taqsimlanadi.

5. Xomiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayollarning amaldagi kreditlari bo'yicha to'lovlar muddati 10 (o'n) oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

6. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) masalasi bo'yicha qaror qabul qilish Bankning huquqi bo'lib, majburiyati hisoblanmaydi hamda qarz oluvchining moliyaviy holati, kredit tavakkalchiligi darajasi, ta'minot sifati va Bankning ichki normativ hujjatlarida belgilangan boshqa omillarni kompleks baholash asosida amalga oshiriladi.

7. Kredit shartnomasi shartlarini restrukturizatsiya qilish, favqulodda vaziyatlar vakolatli davlat organlari tomonidan rasman e'tirof etilgan holatlar bundan mustasno, 1 (bir) yil davomida bir

martadan ortiq amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

III. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga asos bo'ladigan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlar

8. Bank va jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchi o'rtasida tuzilgan amaldagi kreditlar bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) borasida ariza bilan murojaat qilish uchun quyidagi holatlar asos bo'lishi mumkin:

8.1. jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchi ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi;

8.2. jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchining mehnat shartnomasi bekor qilinishi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman/shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ro'yxatga olinishi;

8.3. jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchining birgalikda qarz oluvchisi va (yoki) kafili bo'lgan turmush o'rtog'i vafot etishi;

8.4. I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchining qaramog'iga olinishi yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishi;

8.5. jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchiga nisbatan nogironlikning I yoki II guruhi belgilanishi;

8.6. tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;

8.7. jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchining homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi;

8.8. boshqa asoslangan holatlar.

9. Bunda mazkur Tartib 8-bandining 8.1. va 8.2. kichik bandlarida nazarda tutilgan holatlar yuzasidan jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchi tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish to'g'risida bankka murojaat qilinganda mazkur murojaat sanasidan oldingi ikki oy davomida qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari so'nggi o'n ikki oy ichidagi o'rtacha oylik daromadlariga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo'lishi lozim.

10. Mazkur Tartib 8-bandining 8.1. – 8.7. kichik bandlarida belgilangan holatlar jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchi kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish yuzasidan bankka murojaat qilgan sanadan oldingi to'rt oy ichida ro'y bergan bo'lishi lozim.

11. Mazkur Tartib 8-bandining 8.1. – 8.6. kichik bandlarida belgilangan holatlarda kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga hamda 8.7-bandda belgilangan holatda kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar 10 oydan ko'p bo'lmagan muddatga kechiktirilgan yoki uzaytirilgan taqdirda kredit tasnifi o'zgartirilmaydi va shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktiv deb tasniflanmaydi.

12. Boshqa holatlarda kredit O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibini to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq tasniflanadi.

III'-bob. Yuridik shaxs bo'lgan iste'molchilarning kreditlarini restrukturizatsiya qilishning o'zigaxos jihatlari.

13. Bank va iste'molchi – yuridik shaxs o'rtasida tuzilgan amaldagi kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar (restrukturizatsiya) kiritish uchun quyidagi holatlar asos bo'lishi mumkin:

- a) qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik holatining vaqtincha yomonlashuvi, buxgalteriya va (yoki) moliyaviy hisobotlar bilan tasdiqlangan bo'lsa;
- b) ketma-ket ikki hisobot davrida tushum (daromad) hajmining kamida **30 (o'ttiz) foizga** kamayishi;
- c) to'lov kalendari bilan tasdiqlangan kassalik uzilishi (kassa tafovuti) yuzaga kelishi;
- d) favqulodda vaziyatlar yoki fors-major holatlari sababli xo'jalik faoliyatining to'xtatilishi yoki sezilarli darajada qisqarishi; e) bozor, valyuta, logistika yoki tartibga solish sharoitlarining jiddiy o'zgarishi natijasida majburiyatlarni bajarishga salbiy ta'sir ko'rsatgan holatlar;
- f) Bank tomonidan asosli deb topilgan boshqa holatlar.

IV. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) jarayoni

14. Iste'molchi moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlar tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiyinchiliklarga duch kelgan paytda bankka amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) borasida arizaga quyidagi asoslantiruvchi hujjatlardan biri (yoki bir nechta)ni ilova sifatida taqdim etiladi:

- jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchining oxirgi 12 (o'n ikki) oy davomidagi daromadlari to'g'risida ma'lumot;
- mehnat shartnomasi bekor bo'lganligi to'g'risidagi tegishli buyruq va boshqa hujjatlar;
- ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni tasdiqlovchi hujjatlar;
- kasallik varaqasi yoki tibbiy muassasaning xulosasi;
- tibbiy mehnat ekspert komissiyasining xulosasi;
- jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchining birgalikda qarz oluvchisi va (yoki) kafili bo'lgan turmush o'rtog'ining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- boshqa asoslantiruvchi hujjatlar.

14.1. Kredit shartnomasi shartlarini restrukturizatsiya qilish bo'yicha murojaat qilgan yuridik shaxs quyidagi hujjatlarni majburiy tartibda Bankka taqdim etadi:

- oxirgi hisobot davri va o'tgan moliyaviy yil uchun buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- mavjud bo'lsa, boshqaruv (menedjment) hisobotlari;
- debitorlik va kreditorlik qarzdorligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldida qarzdorlik mavjudligi (yoki mavjud emasligi) to'g'risidagi ma'lumotlar;
- murojaat qilishga asos bo'lgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar.

- zarur hollarda qo'shimcha hujjatlar so'ralishi mumkin;

Bank iste'molchining murojaatiga ko'ra kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirishda mazkur ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish maqsadida qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlardan tashqari davlat idoralarining ma'lumotlaridan foydalanishi mumkin.

15. Iste'molchi arizasi va unga ilova qilingan hujjatlari bank tomonidan qabul qilinadi va ro'yxatga olinadi.

16. Amaliyot boshqarmasi/MBXO tegishli bo'lim xodimi tomonidan iste'molchining ariza va unga ilova qilingan hujjatlar o'rganib chiqilib, ariza yuzasidan xulosa tayyorlaydi.

17. Bunda ariza vakolat doirasida tegishli qaror qabul qilish uchun Amaliyot boshqarmasi/MBXO kredit qo'mitasida ko'rib chiqiladi.

18. Jismoniy shaxs bo'lgan iste'molchi tomonidan taqdim etilgan ariza ro'yxatga olingan sanadan 3 (uch) ish kunidan, korporativ mijozlar uchun ariza ro'yxatga olingan sanadan 30 (o'ttiz) ish kunidan kechikmagan muddatda tegishli Amaliyot boshqarmasi/MBXO kredit qo'mitasi

kotibi tomonidan tayyorlangan xulosa, ko'rib chiqish uchun Amaliyot boshqarmasi/MBXO kredit qo'mitasiga kiritiladi.

19. Amaliyot boshqarmasi/MBXO kredit qo'mitasida iste'molchining murojaati ushbu tartibda belgilangan qoidalarga muvofiqligi ko'rib chiqiladi.

20. Korporativ mijoz bo'lgan iste'molchining murojaati ushbu tartibda belgilangan qoidalarga to'g'ri kelmasa, lekin asoslangan bo'lsa tegishli Bosh bank Kredit Qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

21. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar ko'rib chiqish jarayonida asosli deb topilmasa, ariza rad etiladi hamda iste'molchiga bu haqida 3 (uch) ish kunidan kechikmagan muddatda yozma ravishda asoslantirilgan javob xati taqdim etiladi.

22. Iste'molchining arizasi va unga ilova qilingan hujjatlari kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) uchun asosli deb topilgan taqdirda, Amaliyot boshqarmasi/MBXO kredit qo'mitasi ijobiy qarori qabul qilinadi hamda 3 (uch) bank ish kunidan kechikmagan muddatda Amaliyot boshqarmasi/MBXO Chakana xizmat ko'rsatish bo'limi yoki Korporativ kreditlash bo'limi tomonidan iste'molchining amaldagi kredit shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

23. Iste'molchining amaldagi kredit shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng, qo'shimcha kelishuvning bir nusxasi iste'molchiga taqdim etiladi.

24. Agar qarz oluvchi restrukturizatsiya qilingan to'lov jadvali shartlarini buzsa, Bank restrukturizatsiyani bekor qilish va kredit shartnomasining dastlabki (o'zgartirishlar kiritilmagan) shartlarini qo'llash huquqlarga ega.

25. Qarz oluvchi kredit shartnomasi shartlarini restrukturizatsiya qilishga asos bo'lgan holatlar tugatilganligi yoki o'zgarganligi to'g'risida 5 (besh) ish kuni ichida Bankni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

26. Yuridik shaxs bo'lgan iste'molchi krediti bo'yicha restrukturizatsiya qarz oluvchida barqaror to'lovga layoqatsizlik yoki bankrotlik alomatlari mavjud bo'lmagan, shuningdek, uning to'lovga

layoqatlilikini tiklash bo'yicha iqtisodiy jihatdan asoslangan reja mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

27. Yuridik shaxs bo'lgan iste'molchining krediti restrukturizatsiya qilingan taqdirda Bank:

- qo'shimcha ta'minot taqdim etilishini talab qilishga;
 - kredit moliyalashtirish manbasidan kelib chiqib kredit muddati va foizlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin;
 - amaldagi ta'minot shartlarini qayta ko'rib chiqishga;
- garov, kafillik va kafolatlarning amal qilish muddatlarini uzaytirishni talab qilishga;
- ta'minot sifati yomonlashgan taqdirda restrukturizatsiyani rad etishga haqli.

V. Yakuniy qoidalar

28. Ushbu Tartib bilan muvofiqlashtirilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

29. Mazkur Tartib bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur Tartib davlat va rus tillarida tuzilgan. Agar matnlar o'rtasida biron-bir tafovut yuzaga kelsa, davlat tilida bayon etilgan matn ustuvor deb tan olinadi.